



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 27-dekabr

752-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Germaniya Federativ Respublikasi Hukumati bilan moliyaviy hamkorlikda O‘zbekistonda kasbiy ta’limni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 20-dekabrda 864-son qarori ijrosi haqida”gi 627-6-0-Q/24-son qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Germaniya Federativ Respublikasi Hukumati bilan moliyaviy hamkorlikda O‘zbekistonda kasbiy ta’limni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 20-dekabrda 864-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-dekabrda 627-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-dekabrda 627-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrda 864-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati hamda Germaniya Federativ Respublikasining “Kreditanstalt für Wiederaufbau” banki (keyingi o‘rinlarda Germaniya Federativ Respublikasining “KfW” banki) o‘rtasida 2023-yil 8-noyabrda imzolangan “O‘zbekistonda kasb-hunar ta’limini qo‘llab-quvvatlash” grant kelishuvida 5 yil muddatda 16 mln yevro miqdorida grant ajratilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining Germaniya Federativ Respublikasi “KfW” bankining grantini 1-ilovaga muvofiq 7 ta kasbiy ko‘nikmalar markazlarini qurish-montaj qilish, ta’minlash va jihozlashga yo‘naltirish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullanganligi;

“O‘zbekistonda kasb-hunar ta’limini qo‘llab-quvvatlash” loyihasining texnik-iqtisodiy yig‘ma parametrlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha:

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Germaniya Federativ Respublikasi “KfW” bankining “O‘zbekistonda kasb-hunar ta’limini qo‘llab-quvvatlash” loyihasiga ajratiladigan (keyingi o‘rinlarda Loyixa) grantdan maqsadli foydalanish va uni samarali amalga oshirishga mas’ul ijrochi hisoblanishi;

Loyihaga kiritilgan obyektlarda qurilish-montaj ishlarini moliyalashtirish, shuningdek, asbob-uskunalar bilan ta’minlash xarajatlari Germaniya Federativ Respublikasi “KfW” bankining grantlari hisobidan amalga oshirilishi;

Grant doirasida qolgan mablag‘lar hisobidan Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi kasbiy ko‘nikmalar markazlarining bino va yondosh hududlarini obodonlashtirish ishlariga hamda o‘quvchilar yotoqxonalarini ta’minlash ishlari grant hisobidan moliyalashtirilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov